ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Mengliyeva Gulnoza Noraliyevna

Axborot texnologiyalari va

menejment universiteti magistranti

LINGVOKULTUROLOGIYA FANINING YUZAGA KELISH TARIXI RAUF PARFI SHE'RLARIDA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV VA UNING SHE'RIY MATNDAGI TADQIQOTNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Annatatisiya

Mazkur maqola o'zbek adabiyotiningyirik vakili Rauf Parfi she'riyati lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shoir asarlarida milliy mentalitek, madaniy ramzlar, tarixiy xotira va badiiy obrazlarning tilvositasida ifodalanish o'rganiladi.Lingvokulturologik tahlilning nazariy va amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar

lingvokulturologiya, milliy mentalitet, madaniy ramzlar,obraz, Rauf Parfi she'riyati.

Kirish. Lingvokulturogiya - til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganuvchi fan sohasi hisoblanadi. Har bir badiiy matn o'zida muayyan xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, qadriyatlari va tarixiy xotirasini mujassam etadi. Ayniqsa she'riyat til madaniyat uyg'unligini yaqqol namayon etuvchi san'at turidir.

Rauf Parfi ijoda o'zbek she'riyatida erkin fikr,milliy uyg'onish,ruhiy iztirob va falasafiy mashohadalar bilan ajralib turadi. Uning she'rlarida so'z oddiy ifoda vositasi emas,balki milliy ong va madaniy kod tashuvchi sifatida namoyon bo'ladi.

Lingvokulturologik yondashuv badiiy matndagi til birliklarini madaniy mazmun bilan bog'liq holda tahlil qilishni nazarda tutadi.Bu yondashuv orqali:

- milliy konseptlar;
- ramziy obrazlar;
- tarixiy va diniy ishoralar;
- xalqona iboralar va metaforalar chuqurroq o'rganiladi.

Rauf Parfi she'rlarida "Vatan", "Ozodlik", "Ona", "Osmon", "Qush", "Shamol" kabi tushunchalar nafaqat lug'aviy, balki madaniy-falsafiy ma'noda qo'llaniladi.

Shoir ijodida "Vatan" konsepti asosiy o'rinni egallaydi. Vatan obrazi ko'pincha iztirob sog'inch va erkinlik istagi bilan bog'lanadi. Bu esa o'zbek xalqining tarixiy taqdirlarini aks ettirib yoritilgan.

Masalan, shoirning asosiy she'rlarida osmon va qush obrazlari ozodlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu obrazlar turkey tafakkurdagi erkinlik g'oyasi bilan chambarchas bog'liq.

Shuningdek, ona obrazi-muqaddaslik, poklik va fidoyilik timsolidir. Bu esa o'zbek madaniyatidagi onaga bo'lgan yuksak hurmatni ifodalaydi.

Rauf Parfi she'riyatida ramziy ifodalar ko'p uchraydi. Masalan:

- "Shamol"- o'zgarish va yangilanish
- "Tun"-zulmat va istibdod
- "Tong"-umid va uyg'onih
- "Qush"- ruhiy va erkinlik

Bu ramzlar xalqning tarixiy tajribasi va ruhiy holati bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Lingvokulturologik yondashuv ana shu ramzlarning madaniy ildizlarini ochib beradi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Lingvokulturoliga o'rganish obyektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin ,biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bo'lgan yondashuvga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki ,u xalq madaniyatining tilde namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan holda nutqiy muloqatni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o'rganadi hamda milliy madaniyatning tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Ma'lumki madaniyat tushunchalar sistemasi,muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakteri,milliy urf odatlari, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning yozishicha: "Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so'z bo'lishi mumkin emas, ya'ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo'lishi shart" [1]. Til va madaniyatning ana shunday o'zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o'rganig imkonini beradi. Ya'ni, til va madaniyat.

Muhokama."Til va madaniyat" muammosini o'rganishda bir qancha yondashuvlarni belgilash mumkin:

Birinch yondashuv faylasuf olimlar (S.A.Atanovskit, G.A.Brutyan, E.S.Markaryanlar) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda madaniyatning tilga bir tomonlama ta'siridan borliqning o'zgarishi natijasida milliy-madaniyatning tipiklashtirish va tilda o'zgarish yuz beradi, degan g'oya yotdi.

Ikkinchi yondashuvda esa bu ta'sirning aks tomoni, ya'ni hozirgi kungacha ochiq qolib ketayotgan va munozarali masala-tilning madaniyatiga ta'siri masalasini o'rganish maqsad qilinadi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish bu yondashuvning asosiy g'oyasi sanaladi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish (V.Gumbald, A.A.Potebnya) asosida Sepir Uorfning lingvistik aloqadorlik gipotezasi,ya'ni har bir xalq borliqni o'z ona tilisi orqali ko'rsatadi, his etadi, his etganini belgilaydi, degan g'oya yotadi.

Bu g'oya keyinchalik , I.L.Vaysgerberning tilni "O'tkinchi dunyo", ya'ni "borliqni anglash", muayyan "mavjudlik va tafakkur" sifatida qaraluvchi g'oyalarida ilgari surilgan. Uning bu gepotezasi ko'pchilik olimlar tomonidan inkor etilgan bo'lsada, biroq ular boshqa usullar bilan tushuntirilishi murakkab bo'lgan hodisalarni ahglahga yordam bergan. Xusuan, N.I.Tolstning etnolingvistik maktabi vakillarining ishlari, E.Barminskiy va izdoshlarining lingvoantropologik yo'nalishdagi ishlari bularning isbotidir.[2]

Uchinchi yondashuv to’g’ridan-to’g’ri til va madaniyatning o’zaro ta’siri va aloqadorligi g’oyalariga asoslanadi. Til milliy mentalitetining spetsifik qirralarining o’zida namoyon etadi. Boshqa tomondan “madaniyat tilda” joylashgan, ya’ni u matnda to’laligicha o’z ifodasini topgan.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki,Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Rauf Parfi ijodida o‘xshatish va metaforalar nafaqat estetik vosita sifatida, balki falsafiy mazmunni chuqurlashtirish uchun ham qo‘llaniladi. Shoirning badiiy tasvirlari o‘quvchini voqelikning nozik jihatlarini ko‘rishga undaydi. Bu tasvirlarda tabiat unsurlari insoniy xislatlar bilan uyg‘unlashadi, bu esa metaforaning jonlantirish shaklini namoyon etadi. Rauf Parfi ijodi o‘zining o‘zgacha lingvopoetik uslubi, tasviriy vositalarning boyligi va falsafiy mazmuni bilan zamonaviy o‘zbek she’riyatida alohida o‘rin tutadi. Shoirning o‘xshatish va metaforalari nafaqat badiiy tasvir, balki inson ruhiyati va tabiat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ochib beruvchi vosita sifatida ham qimmatli. Shu sabab, Rauf Parfi she’rlari barcha davrlarda o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

Rauf Parfi she’riyati lingvokulturologik jihatdan boy va ser qatlamdir. Unda milliy ruh, tarixiy xotira, madaniy ramzlar til vositasida yuksak badiiy darajada ifodalanadi. Lingvokulturologik yondashuv shoir asarining chuqur mazmunini ochishda xizmat qiladi hamda nazariy va amaliy jihatdan muhim ilmiy natijalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Yo'ldoshev M."Badiiy matn lingvopoetikasi" O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti. Toshkent–2008

2.U.Hamdam. "Erkin badiiy tafakkur va bugungi o'zbek she'riyati"

3.Mahmudov N."O'xshatishlarning til va nutqdagi o'rni"–Til tilsimi tadqiqi.

4.Quronov D. "Adabiyot nazariyasi asoslari". Toshkent–2019

5.Rahmonov N. "O'zbek adabiyoti tarixi". Toshkent–2017

6."Saylanma"l-jild Rauf Parfi" Muharrir" nashriyoti Toshkent–2022

7.Hatamov N.Sarimsoqov (1979). Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o’zbekcha izohli lug’ati. Toshkent: Mumtoz so'z–2017